

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Iyun, 2026-yil

IPAK YO’LI –MULOQOT YO’LI

SHAHRI SABZ DAVLAT PEDOGOGIKA INSTITUTI IJTIMOY FANLAR

FAKULTETI TARIX YO’NALISHI

2-25-GURUH TALABALARI

Fayzullayeva Marjona

Tojiyeva Mubina

Abduaxatov Azizbek

Annotatsiya; *Bu maqola Buyuk ipak yo’lining vujudga kelishi ,shakllanishi va taraqqiyot etishini hamda jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim sabablaridan biri hisoblanadi. Buyuk ipak yo’lining nafaqat savdo sotiqda, balki Sharq va G’arb o’rtasida madaniyat ilm fan va san’atni bog’laydigan ko’prik sifatida ko’riladi. Shuningdek Markaziy osiyo hududida dinlar va madaniyatlarning tarqalishini ham ko’rsatib o’tiladi.*

Kalit so’zlar; *Buyuk ipak yo’li,san’at, savdo yo’llari,ilm-fan, sharq va g’arb, Markaziy osiyo,Yaqin sharq , Qang’,Davan, sivilizatsiya, Hindiston,Mesopatamiya,samoviy otlar,Chjan Syan*

KIRISH

Buyuk Ipak yo’li-mil.avv.II asrda boshlangan bo’lib bu yo’l o’sha davrda g’arb va sharqni bog’laydigan yagona yo’l hisoblanardi.Bu yo’l orqali ilm-fan yuksaldi va savdo-sotiq munosabatlari xususan, madaniyatlararo muloqotning yuqori cho’qqiga erishganligini ko’rishimiz mumkin.Buyuk Ipak yo’li buyuk geografik kashfiyotlar davrida oz ahamiyatini yo’qotgan bo’lsada, uning ahamiyati hozirgi davrda ham ta’sirini ko’rsatib kelmoqda.

Ma’lumki buyuk ipak yo’li nafaqat savdo, yo’li ba’lki diplomatiya va madaniyatlar aro munosabat yo’li hisoblanadi. Turli davrlarda buyuk ipak yo’li orqali dastalb Xitoy elchilari va sug’diy savdogarlar o’rtasida tovar ayirboshlash boshlangan . Bilamizki Xitoy elchisi Chjan Syan diplomatik munosabatlar amalga oshirish uchun Miloddan avvalgi 115-yil ikkinchi sayohatida dastlab Turkiston o’lkasidagi shaharlarga kelgan , so’ngra boshqa mamlakatlarga borgan. Natijada Sug’diy savdogarlar nafaqat Xitoyga balki Koriya va Yaponiyaga ham borishgan. Markaziy Osiyoga boradigan yo’llar ochildi. Mazkur elchilikka bo’lgan uzoq vaqt davomadida esa qadimgi Xitoy bilan G’arbiy Osiyo va Yevropa o’rtasidagi savdo aloqalari asosan yopiq bo’lgan.Buyuk ipakyo’lining asoschisi sifatida bilamzki Chjan Syan faoliyatini .Chjan Syanning tug’ulganligi haqida aniq ma’lumotga ega emasmiz lekin uning vafot etganligi taxminan miloddan avvalgi 103-yilga to’g’ri keladi. U mashhur diplomati va sayyoh sifatida xitoy uchun uzoq davrlar davomida yopiq bo’lgan [Zao Kong]Markaziy Osiyoga birinchi marotaba borib Xitoyliklar uchun Xun va Chjou xalqlaridan boshqa xalqlar ham borligini va ko’rsatib bergan birinchi rasmiy davlat elchisidir .Bu elchilik munosabatlaridan oldin qadimgi o’rta va sharqda bir nechta yo’llar ham bo’lgan bulardan biri “lojuard yo’li” bo’lib , Badaxshon lalisi [lojuardi], qizil yoqutga bo’lgan ehtiyoj tufayli Yaqin sharqni Baqtriya bilan bog’lagan yo’l vujudga

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Iyun, 2026-yil

kelgan. Miloddan avvalgi VI-IV- asrlarda esa buyuk Ahamoniylar davlatining poytaxti hisoblangan Persepol shahrini Bobildan Baqtryagacha bo'lgan hududlarni bog'lagan “shoh yo'li” vujudga keldi. Bu yul orqali Badaxshon la'lisi Yaqin sharq mamlakatlari xususan Mesopatamiya Misrga yetkazilgan saroylari-yu ibodatxonalarini bezashda va ko'zni qamashtiradigan zeb zeynatlar yasashda keng ishlatilgan. Bir necha yillar davomida G'arb va Sharqni bog'lagan “Buyuk ipak yo'li shu zaylda shakllana boshladi . Tepada aytib o'tganimizdek Xitoy elchilari Ipak yo'li orqali Yaqin sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo va elchilik aloqalari olib borganlar ular sovg'a salomlar bilan o'z elchilari bilan Markaziy osiyo, Eron ,Mesopatamiya, Kichik osiyo va Yevropaning ba'zi mamlakatlariga yuborganlar .Shunisi bizga ma'lumki Ipak yo'li bo'ylab ustunlik qilish uchun Eron,Parfiya ,O'rta osiyo hukumdorlari va Xitoy o'rtasida hamma vaqt kurash bo'lib turgan. Ayniqsa bunday raqobatli kurash Milodiy III-asrdan boshlab Eron va O'rta osiyo bo'ylab hamda Eron bilan Parfiya o'rtasida bu kurash keskin tus olgan .O'rta osiyo orqali Xitoydan G'arb mamlakatlariga o'tgan savdo karvon yo'llari doimo Sug'diy savdogarlar nazoratida bo'lgan. Sug'd savdogarlari o'z ustunliklarini saqlab qolish uchun Sharqiy Turkuston, Yetti suv, Oltoy hududlaridan to Yenisey daryosi sohillariga qadar bo'lgan hududlarni ,Shimoliy Xitoyning Shan Szini, Dun Xuan kabi karvon yo'li yoqasida joylashgan shaharlarida o'z karvonsaroylarini va qishloqlarini barpo etganlar.[1]. Misol tariqasida shuni aytib o'tishimiz lozimki Dun Xuan shahrida Milodiy III-IV-asrlarda 5 ming xo'jalikga ega Sug' qishlog'I barpo etilgan . Xitoy manbalarga qaraganda ular uchun “Ipak yo'li “savdosida otlar alohida ahamiyat kasb etgan. Usha davrda Xitoyliklar uchun otning baxosi ipakning baxosi kabi juda yuqori bo'lgan. Buyuk ipak yo'li orqali savdo aloqalari Milodiy I-II-asrlarda ya'ni imperator VU-DI va Parfiya podshohi o'rtasida do'stona munosabatlar natijasida o'zaro elchilik munosabatlari rivojlandi. Parfiyaliklar Xitoy ipagini juda yuqori baxolaganlar va aynan Rimliklar ham Xitoy ipagining baxosini parfiyaliklardan bilishgan . Manbalar asosida shuni bilishimiz mumkinki arab tarixchilarining ba'zi asarlarida Sharq diyorida “shaharlar onasi” deb ulug'langan Marvda ikki tarmoq ya'ni shimoliy va janubiy kichik tarmoqlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bilamizki yillar o'tishi natijasida asta sekinlik bilan savdoda pul birliklari paydo bo'la boshladi. Dastlabki pul birligi sifatida Ahamoniylar imperiyasida “shoh yo'li” sifatida tanilgan savdo yo'lida pul birligi “darik” tangalarini keyinchalik esa sug'diy tangalaridan foydalanib u to'rt burchak o'rtasida teshigi bo'lgan. Keyinchalik undagi sug'd yozuvi o'rniga Xitoy eyirogliflari yoziladigan bo'ldi .[4].

Bu tanga pullar tashqi savdo ayirboshlashda hamda ichki savdoda ham keng qo'llanilgan. Bu haqidagi numizmatiklar va arxeologlar ham tasdiqlaydi. Xitoy bilan Sug'd savdogarlari o'rtasidagi savdo munosabatlari Miloddan avvalgi IV-III –asrlardan o'rnatila boshlagan edi. Keyinchalik bu savdo munosabatlar orqali Sharqiy turkustonda tijoratchi muxojir Sug'diy savdogarlarning koloniyalari paydo bo'ldi. Birinchi o'rinda aytib o'tishimiz joizki Markaziy osiyo davlatlaridan biri Davan davlati haqida bo'lib bu davlat bilan Miloddan avvalgi II-I- asrlarda juda keng savdo elchilik munosabatlarini amalga oshirilganligini va bu davlat haqida “bu davlat keng , obod, boy mamlakat bo'lib , o'sha

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Iyun, 2026-yil

vaqtda 300 ming kishini tashkil etganligini, aholisi haqida qalin soqolli xalq bo'lib, savdo sodiq ishlarida moxirlik bilan nom chiqarganini aytib o'tgan. Bundan tashqari Davan davlatida boqiladigan “osmon tulporlari” deb ataluvchi arg'umoqlar Sharq diyorida juda mashhur bo'lgan.[2].

Xitoyliklar bilan savdo sodiq ishlarini amalga oshirgan davlatlardan biri qadimgi Qang' hisoblanadi. Bu davlat Xitoy manbalarida bu davlat haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Keyinchalik Kushonlar davlati bilan ham keng miqyosda savdo elchilik munosabatlarni amalga oshirgan. [5].

Bu savdo yo'li faqat tovar ayirboshlash bilan emas balki mamlakatlar o'rtasida dinlarning ham tarqalishiga asosiy tayanch vositasi hisoblangan. Bu davrda budda dinini Markaziy osiyo orqali Xitoyga undan so'ng esa Sharqqa tarqaldi va davlat dini darajasiga ko'tarildi. Xristianlik dini kirib keldi. Moniylik etiqodi esa Eron va Markaziy osiyoning janubida keng tarqaldi. O'rta asrlarga kelib buyuk ipak yo'li orqali o'tgan shaharlar aholisining madaniyati va turmush tarzini butunlay o'zgartirib yubordi. Xitoy buyuk ipak yo'li orqali Markaziy osiyo, Eron Mesopatamiya, Hindiston Kichik osiyo bilan o'zaro madaniyatlar aro almashinuvini amalga oshirilgan. Markaziy osiyo hisoblanmish Toxarlar, Safforiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar ham buyuk ipak yo'lida asosiy savdo va turli madaniy qadriyatlarni tarqatuvchilari sifatida ishtirok etadi. [3].

Adabiyotlar tahlili

Buyuk Ipak yo'li paydo bo'lganidan boshlab toki hozirgi kungacha ko'plab olimlar tomonidan tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqdadir. Bu olimlardan biri Albat Xo'javey bo'lib, uning “Buyuk ipak yo'li ;munosabatlar va taqdirlar” asarida Buyuk ipak yo'lini Chjan Syan sayohati bilan bog'lab, Chjan Syanning Markaziy osiyo davlatlariga xususan, Qang', Davan va Yuechjilar haqida kengroq ma'lumot keltirilgandir. Bu kitob orqali biz Xitoy bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalarining yuksalishiga guvoh bo'lamiz.

Bu yo'l haqida Pardayev M va Mamarahimova Bashoratning asarlarida Markaziy osiyo davlatlari xususan, Farg'ona shaharlari, Kushonlar Ipmeriyasi va Parfiya davlatlarining dunyodagi yirik davlatlar bilan ya'ni Yaqin Sharq mamlakatlari, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy bilan bo'lgan munosabatlar haqida keng ma'lumot keltirib o'tilgandir. Mamarahimova Bashorat va A.X.Saidovlarning asarlarida Buyuk Ipak yo'lining shakllanishini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarini, tarmoqlarini va o'rta asrlardagi asosiy yo'nalishlarini xususan, tarixiy diplomatiyaning shakllanish va taraqqiy etish yo'llarini ko'rib chiqilgandir.

Xulosamiz shundan iboratki Buyuk ipak yo'li bir necha asrlar davomida Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib keldi. Aynan shu yo'l orqali xalqlarning madaniy aloqalari va do'stona munosabatlari o'rnatildi. Aynan shu yo'lda birinchilardan bo'lib xalqaro chek ishlatildi. Lekin bilamizki vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi shu kabi buyuk ipak yo'li ham o'z ahamiyatini XV- asrlarga kelib yo'qota boshladi. Shu bilan birga XV- asrlarga kelib o'zining yuqori mavqeini yo'qotgan bo'lsada lekin dunyo taraqqiyotida ilm- fan, savdo sotiq ishlarida va madaniyatlar aro almashuvida

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Iyun, 2026-yil

yuqori darajaga ko‘tarilishiga asosi bo‘lganligini hozirda ham bilishimiz mumkun hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ablat Xo‘jayev “Buyuk ipak yo‘li ;munosabatlar va taqdirlar”. Toshkent.2007.
- 2.Pardayev M.”Buyuk ipak yo‘li yoqasidagi Markaziy Osiyo shaharlari”. Samarqand.1994.
3. Mamarahimova Bashorat “Buyuk ipak yo‘li sivilizatsiyalararo muloqoty‘li. Toshkent.2010
- 4.V.X. Matboboyev,R.T. Shamsidinov, A. Mamajonov “Buyuk ipak yo‘lidagi Farg‘ona shaharlari” Andijon.1994.
- 5.A.X.Saidov. “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va Buyuk Ipak yo‘li. “Toshkent 2016.